



THE PROBLEM OF CONSCIOUSNESS IN PHILOSOPHY

Azimov Sirojiddin

University of World Languages Youth Work,
stylist of the Department of Spirituality and Enlightenment

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5325345>

ARTICLE INFO

Received: 15th August 2021

Accepted: 20th August 2021

Online: 25th August 2021

KEY WORDS

instance, subjective
idealism, sensory
elements, epistemology,
sociology,
anthropological
philosophy

ABSTRACT

The philosophical study of the mind and spirit is based on the fact that it is a specific spiritual form of being. Therefore, in philosophy, the category of consciousness is closely related to the analysis and understanding of all material and spiritual activities of man.

FALSAFADA ONG MUOMMOSINING QO'YILISHI

Azimov Sirojiddin

Jahon tillar universiteti Yoshlar bilan ishlash,
Manaviyat va marifat bo'limi uslubchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-avgust 2021

Ma'qullandi: 20-avgust 2021

Chop etildi: 25-avgust 2021

KALIT SO'ZLAR

instantsiya, sub'ektiv
idealizm, sezgi elementlari,
gnoseologiya, sotsiologiya,
antropologik falsafa.

ANNOTATSIYA

Ong va ruhni falsafiy jihatdan o'rganish uni borliqning o'ziga xos ma'naviy shakli ekanligi bilan asoslanadi. Shu sababli falsafada ong kategoriyasi insonning butun moddiy va ma'naviy faoliyatini tahlil qilish va tushunish bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Ong masalasini talqin qilishda turli falsafiy maktablarning namoyondalari o'z fikrlarini bayon qilishganlar. Qadimgi yunon faylasuflaridan biri Suqrot «o'zingni bilsang, olamni bilasan» degan edi. Bu fikr ortida olam kabi inson ham murakkab bo'lib, u o'zini bilish va anglash orqali olam mohiyatini anglashga yo'l ochishi mumkin

degan xulosa yotadi. Suqrotning falsafiy fikr va mulohazalarida inson va uning ongini o'rganish turar edi. Suqrotning tushuntirishiga insonning ongi turli holatlarda va darajalarda sodir bo'lib, u bir necha qatlamlardan iborat bo'ladi. O'sha murakkab ongning sohibi – individdir. Indiidning ongi esa turli ijtimoiy ongning



mazmunini oliy instantsiya belgilab beradi, oliy instantsiya esa Suqrotning tushuntirishicha aqlidir.

Yunon faylasuflaridan biri bo'lgan Demokritning fikricha bilish ob'ekti moddiy olam bo'lib, ongimiz esa moddiy olam bo'lib, sezgilar orqali aks ettirilishidan iboratdir. Sharq falsafiy maktabining asoschilaridan biri hisoblangan Forobiy esa inson o'zini qurshab turgan olamni, sezgi a'zolari aql idroki orqali bila boradi. Inson aqli moddiy olam rivojlanishining eng oliy mahuslidir. Forobiy inson aqlining rolga katta baho beradi. Inson aql – tafakkur yordamida borliqni, ijtimoiy hodisa va jarayonlarning mohiyatini bilib beradi deb ta'kidlaydi. Islom ta'limoti va tasavvuf falsafasiga ko'ra ong va ruh olloh tomonidan insonga in'om qilingan bo'lib, u o'lmas va abadiydir. Shuningdek inson xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, boshqa mahluqotlardan farqli o'laroq unga ilohiy aql ato etilgandir.

Sub'ektiv idealizm tarafdorlari moddiy dunyoni ong vujudga keltiradi deb ta'kidlashadi. Jumladan ingliz faylasufi J.Berkli (1685 – 1753 y) bizni o'rab turgan narsalar faqat bizning sezgilarimizda mavjuddir. Moddiy dunyo esa kishi ongida, sezgi va tasavvurlaridagina mavjuddir deydi. Xudi shunday fikrni Avstriyalik fizik faylasuf Ernest Max (1838 - 1916) va Shvetsariyalik faylasuf Rixard Avenarius (1843 – 1869) ham ilgari suradilar. Ular insonning ongi tashqi olamni «sezgi elementlari» dan iborat bo'lib, shu tariqa ob'ekt sub'ektdan, narsalar sezgidan ajralmaydigan bo'lib chiqadi. Narsalar esa sezgilar kompleksi sifatida yuz beradi degan fikrni ilgari suradilar.

Falsafiy fikr rivojida ong muammosi barcha zamonlarda faylasuflarning diqqat markazida bo'lib, kelganligini va hozirgi kunda ham dolzarb ekanligini ta'kidlash lozim. Falsafa fani ongni bir butun yaxlit

holda olib, uni har taraflama o'rganar ekan, bunda u hozirgi zamon ilm – fanida erishilgan eng yangi ma'lumotlarga tayangan holda ish ko'radi.

Hozirgi zamon fanlari (biologiya, psixologiya, nevrologiya, fiziologiya, kibirnetika va boshqalar) yutuqlariong inson miyasining mahsuli ekanligini, shu bilan birga ong inson turmush tarzining va ijtimoiy faoliyati bilan bevosita bog'liq ekanini isbotlab bermoqda. Ongning mohiyatini to'la ochib berish uchun unga har tomonlama, ya'ni ontologik, gnoseologik va sotsiologik jihatdan yondoshish lozim. Unga ontologik jihatdan yondoshish, ong – bu tabiatni uzoq tarixiy taraqqiyotining mahsuli materiya evolyutsiyasi jarayonida vujudga kelgan ruhiy hodisalarning xossasi demakdir. Inson ongi yuksak darajada tuzilan materiya bo'lmish miyaning xossasidir.

Ong muammosini bunday tushunish borliqning evolyutsiyasi natijasida noorganik tabiatdan organik tabiatning kelib chiqishi organik tabiat taraqqiyotida unga xos in'ikos shakllarining rivojlanib, o'zgarib, oddiy turlaridan murakkab turlariga o'tib berishi asosida shakllangan degan qarashdan kelib chiqadi. Ongga gnoseologik jihatdan yondoshish uning faoliyatini, olamni bilish vositasi ekanligini e'tirof etish demakdir. Ongning muhim belgilaridan biri shuki, u tushunib olingan bilimdir. Inson miya yordamida fikr qiladi. Ong faqat ob'ektiv olam in'ikosini emas, balki insonning o'z ruhiy faoliyatini anglashini ham o'z ichiga oladi. Ong voqelikning ham hissiy, ham aqliy in'ikosini qamrab oladi.

Ongga sotsial (ijtimoiy) yondoshish uning ijtimoiy mohiyatini ochib berishni taqozo qiladi. Inson ongi nafaqat tabiiy mahsul, balkim ijtimoiy munosabatlar natijasidir. Ijtimoiy muhitsu jamiyatdagi



kishilar ijtimoiy munosabatlarisiz, qolaversa jamiyatning ta'siri va tarbiyasisiz ongi shakllanmaydi.

A.Feyerbaxning antropologik falsafasining asosiy kamchiligini ham shunda ediki u insonni faqat tabiatning mahsuli deb qarab, jamiyatning roliga yetarli e'tibor bermagan edi.

Darhaqiqat inson ongi uning jamiyatdagi hayot faoliyati davomida shakllanadi va rivojlanadi. Odam bolasi faqat jamiyatning ijtimoiy muhiti ta'sirida ongli zotga – insonga aylanadi va shaxs darajasiga ko'tariladi. Xullas, ong odamni hayvonot dunyosidan ajratgan ijtimoiy – tarixiy hodisadir.

Ilmiy falsafiy ta'limotga ko'ra ong – inson miyasining faoliyati, uning ruhiy funksiyasi, moddiy substantsiya bo'lgan miyaning xususiyidir. Miya esa fikrlash organi yuksak darajada tuzilgan materiyadir. Umuman ong insonga borliqdagi narsa va hodisalar, bog'lanishlari qonuniyati haqida bilimlar hosil qilish imkoniyatini beradi. Inson zoti ongli mavjudot sifatida o'z oldiga maqsadlar qo'yadi va unga erishish yo'llarini izlaydi va ong iufayli inson o'zining tabiatda va jamiyatda tutgan o'rniga baho beradi. O'zi uchun zaruriy shart – sharoitlarni ijodiy ravishda yangilab takomillashtirib boradi.

Xulosa qilib aytganda, ong yuksak darajada tashkil topgan materiyani inson miyasining xossasi, voqelikning inson miyasidagi in'ikosining oliy ruhiy shaklidir. Insonning bosh miyasi esa ongning moddiy

subetrati, xolisi bo'lib xizmat qiladi. Falsafada ong muammosi in'ikos nazariyasiga asoslanadi. Ongning paydo bo'lish jarayonini tushunmoq uchun in'ikos printsipini ya'ni borliqning inson miyasida aks etish jarayonini bo'lish zarur.

In'ikos borliqdagi narsa va hodisalarning o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladigan aks etish jarayonidir. Umumiy ma'noda in'ikos deganda har qanday predmetning u bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan boshqa predmetlarning ta'sirini muayyan tarzda aks ettirishi bilan bog'liq xossasiga aytiladi. Shu ma'noda in'ikos hamma joyda va har bir narsada mavjuddir. Ayni paytda har bir holatda u o'ziga xos xususiyatga egadir. Bir moddiy yoki ma'naviy narsaning boshqa moddiy yoki ma'naviy narsadan o'z ta'sirini qoldirish uni saqlash yoki bu ta'sirga muayyan tarzda aks ta'sir bilan javob berish kabi xususiyatlardir

Xulosa qilib aytganda, shuni aytish mumkinki ong tabiat taraqqiyoti, masalan paydl bo'lgan odam miyasining oliy ruhiy shaklidir. Insonning ongi uning barcha ruhiy va aqliy qobiliyatlari, jamiyatdagi faoliyati davomida tarkib topadi va ma'lum ijtimoiy shart – sharoitlar bilan taqozo qilinadi.

Ijtimoiy hayot bilan birga shakllanib, rivojlanib borgan ong insonda tafakkur shakllari, ahloq normalari va qarashlarining shakllantirishiga asos bo'ladi. Inson ongi mehnat va nutq tufayli shakllangan hamda taraqqiy qilgan. Xullas ong odamni hayvonot dunyosidan ajratgan ijtimoiy tarixiy hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Falsafa. Q. Nazarov tahriri ostida. Toshkent, 2005, 194-203-betlar.
2. Filosofiya. Pod red. V. P. Koxanovskogo. Rostov-na-Donu, 1999, s. 162-211.
3. Falsafa. E. Yusupov tahriri ostida. Toshkent, 1999, 356-364-betlar.
4. Osnovo' filosofii. Pod red. M. Axmedovoy i V.Xana. Tashkent, 1998, s. 253-269.



5. Rahimov I. Falsafa. Qisqacha konspekt. Toshkent, 1998, 87-bet.
6. Spirkin A. G. Filosofiya. Moskva, 1998, s. 383-384, 395-400.
7. Alekseev P. V., Panin A. Filosofiya. Moskva, 1997, s. 156-157.
8. To'lenov J. T, G'afurov Z. G'. Falsafa. Toshkent, 1997, 176-182-betlar.